

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SURXON - SHEROBOD VOHASIDA BADASH SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TRANSFORMATSIYASI

Kichkilov Sherxon Xamzayevich

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti, PhD.

e-mail: kichkinovsheron@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5223-7770>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Surxon - Sherobod vohasida badash san'atining tarixiy ildizlari, shakllanish jarayonlari va etnomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Badashning xalq turmushi, mehnat jarayonlari, bayram va marosimlar bilan bog'liqligi, shuningdek, uning saqlanishida ayollar ijrochiligi va avlodlararo vorisiylikning o'рни yoritiladi. Vohadagi musiqiy-folklor an'alarining qadimgi Baqtriya madaniyati bilan tarixiy aloqadorligi ham ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sherobod vohasi, badash, xalq folklori, musiqiy meros, ayollar folklori, marosimlar, qadimgi Baqtriya, etnomadaniy an'alar, nomoddiy madaniy meros.

ФОРМИРОВАНИЕ И ИСТОРИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ИСКУССТВА БАДАШ В СУРХАН-ШЕРАБАДСКОМ ОАЗИСЕ

Кичкилов Шерхон Хамзаевич

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, PhD.

Аннотация.

В статье анализируются исторические корни, процессы формирования и этнокультурные особенности искусства бадаш в Шерабадском оазисе. Рассматривается связь бадаша с традиционным бытом, трудовой деятельностью, праздниками и обрядами населения, а также роль женского исполнительства и межпоколенческой преемственности в его сохранении. Особое внимание уделяется историческим связям музыкально-фольклорных традиций оазиса с культурным наследием древней Бактрии.

Ключевые слова: Шерабадский оазис, бадаш, народный фольклор, музыкальное наследие, женский фольклор, обряды, древняя Бактрия, этнокультурные традиции, нематериальное культурное наследие.

THE FORMATION AND HISTORICAL TRANSFORMATION OF THE BADASH ART IN THE SURKHAN-SHERABAD OASIS

Kichkilov Sherxon Xamzayevich

Termez State University of Engineering and Agrotechnologies, PhD.

Abstract.

This article analyzes the historical roots, formation, and ethnocultural features of the Badash tradition in the Sherabad oasis. It examines the relationship of Badash with traditional life, labor activities, festivals and rituals, as well as the role of women performers and intergenerational continuity in its preservation. Particular attention is also given to the historical connections between the musical and folklore traditions of the oasis and the cultural heritage of ancient Bactria.

Keywords: Sherabad oasis, Badash, folk folklore, musical heritage, women's folklore, rituals, ancient Bactria, ethnocultural traditions, intangible cultural heritage.

Kirish. Sherobod vohasida xalqning an'anaviy turmush tarzi va ma'naviy hayoti bilan bog'liq bayram hamda marosimlar tarixan muhim o'rin egallagan. Hudud aholisi orasida yil davomida nishonlanadigan Navro'z, Ramazon hayiti va Qurbon hayiti kabi umumxalq va diniy bayramlar o'ziga xos mahalliy urf-odatlar bilan uyg'unlashib kelgan. Ular orasida Navro'z bahorning boshlanishi, tabiatning yangilanishi va yangi dehqonchilik mavsumiga kirib borish bilan bog'liq qadimiy bayram sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Sherobod vohasining an'anaviy xo'jaligida dehqonchilik muhim o'rin tutgani sababli bahorgi tengkunlik davri yerga ishlov berish, ekin mavsumini boshlash hamda kelgusi hosilning barakali bo'lishiga umid bilan qaraladigan muhim davr hisoblangan. Shu jihatdan Navro'z bilan bog'liq urf-odatlarda tabiatning uyg'onishi, hosildorlik, farovonlik va jamoaviy birdamlik g'oyalari o'zaro uyg'unlashgan [1:24].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (MATERIALS AND METHODS)

Navro'z kunlari Sherobod vohasi aholisi orasida keng tarqalgan an'analardan biri sumalak tayyorlash bilan bog'liq

jamoaviy marosimlar bo'lgan. Sumalak uchun bug'doy oldindan saralanib, undirilib, nihollar yetarli darajada o'sgach, maxsus tayyorgarlik asosida taom pishirishga kirishilgan. Bu jarayonda, ayniqsa, xotin-qizlarning ishtiroki muhim bo'lib, ular tun davomida qozon atrofiga to'planib, qo'shiq va aytilar ijro etgan, raqsga tushgan, turli o'yin va suhbatlar bilan marosimga bayramona ruh bag'ishlaganlar. Shu sababli sumalak tayyorlash oddiy taom pishirish jarayonidan ko'ra kengroq ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etib, mahalla va qarindosh-urug'lar o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlovchi an'anga aylangan. Pishirish yakunlangach, qozon yopib qo'yilib, ertalab yoshi ulug' va hurmatli kishilarning ezgu tilak hamda dualaridan so'ng ochilgan. Sumalak yuzasida paydo bo'lgan turli shakllarga qiziqish bilan qarash va ularga yaxshilik alomati sifatida ramziy ma'no yuklash xalqning an'anaviy tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. Tayyor sumalakning dastlab keksalar, qo'ni-qo'shnilar va marosim ishtirokchilariga ulashilishi esa baraka va saxovat tushunchalarining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lgan [2:128].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Sherobod vohasi aholisi ma'naviy hayotida islom dini bilan bog'liq Ramazon va Qurbon hayiti an'analari ham muhim o'rin tutadi. Ramazon oyida ro'za tutish diniy ibodat bo'lishi bilan birga, kishini o'zini tiyish, sabr-qanoat, poklik, mehr-oqibat va muhtojlarga yordam ko'rsatishga undovchi ma'naviy-amaliy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ro'za davomida musulmonlar tongdan quyosh botguniga qadar yeb-ichish va ro'zani buzuvchi amallardan tiyilib, axloqiy poklikka rioya qilishga intiladilar. Vohadagi mahalliy an'analarda Ramazon oyining jamoaviy jihatlar ham yaqqol ko'zga tashlanib, iftorliklar tashkil etish, qarindoshlar va qo'ni-qo'shnilar xabar olish, ehtiyojmand oilalarga ko'mak berish kabi odatlar ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirgan. Shuningdek, "Yo Ramazon" aytilari singari folklor an'analari diniy qadriyatlarining xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlashgan ko'rinishini ifodalaydi. Demak, Sherobod vohasidagi Navro'z, sumalak, Ramazon va hayit bilan bog'liq marosimlarni tahlil qilish hudud aholisining qadimiy agrar tasavvurlari bilan islomiy qadriyatlarining tarixiy jarayonda o'zaro uyg'unlashib, o'ziga xos mahalliy etnomadaniy an'alar tizimini shakllantirganini ko'rsatadi [3:101].

Sherobod vohasi aholisining an'anaviy turmush tarzida kundalik mehnat jarayonlari, oilaviy marosimlar, to'y va bayramlar bilan bog'liq qo'shiq hamda aytilar muhim o'rin egallagan. Vohaning musiqiy-folklor merosida uchraydigan qadimiy ijro shakllaridan biri badash an'anasi bo'lib, u qo'shiq, ohang, ritmik harakat va jamoaviy ijroning o'zaro uyg'unligi bilan ajralib turgan. Badash faqat ko'ngilochar musiqiy hodisa bo'lmay, xalqning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, to'y-marosimlari va jamoaviy munosabatlarini badiiy vositalar orqali ifodalovchi nomoddiy madaniy meros shakllaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. "Badash" atamasining kelib chiqishi xususida turli qarashlar mavjud bo'lib, ayrim talqinlarda u qadimgi turkiy leksik qatlam bilan bog'lanadi. Biroq uning etimologiyasini "badar", ya'ni "yengil shovqin", "urmoq" yoki ritmik harakat ma'nolaridan to'g'ridan to'g'ri keltirib chiqarish maxsus lingvistik tadqiqotlarni talab etadi. Shu bois Sherobod vohasi badash an'anasini o'rganishda atamaning lug'aviy kelib chiqishidan tashqari, uning ijro muhiti, marosimiy vazifasi va avlodlararo uzatilish mexanizmlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

NATIJALAR (RESULTS)

Surxon-Sherobod vohasi musiqiy an'alarining tarixiy ildizlarini qadimgi Baqtriya-Tohariston madaniy muhiti bilan qiyosiy o'rganish uchun arxeologik topilmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Surxon vohasidagi Ayritom yodgorligidan aniqlangan milodiy I-II asrlarga oid mashhur frizlarda sozandalar, jumladan, turli cholg'u asboblari chalayotgan inson tasvirlarining mavjudligi hududda musiqa va marosim san'ati qadimdan rivojlanganini ko'rsatadi. Xolchayon yodgorligidan topilgan terrakota va haykaltaroshlik namunalari ham qadimgi davr musiqiy madaniyatini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Eski Termiz va unga tutash arxeologik hududlardan aniqlangan musiqachi obrazlari esa Surxon vohasida torli va boshqa cholg'ular asosidagi ijrochilik an'alarining chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu topilmalarni bevosita hozirgi badash an'anasining aynan o'zi bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qilsa-da, ular Sherobod vohasi ham tarkib topgan qadimgi janubiy Baqtriya madaniy makonida musiqa, raqs va marosimiy ijrochilik rivojlanganini tasdiqlovchi muhim dalillar hisoblanadi [4:86].

Ayniqsa, qadimgi tasviriy manbalarda ayol sozandalar obrazlarining uchrashi voha musiqiy madaniyatida xotin-qizlar ishtirokining tarixiy ildizlarini tadqiq etish uchun muhimdir. Sherobod vohasida keyingi davrlargacha saqlangan badash, lapar, o'lan, "Yor-yor", kelin salom va boshqa marosim aytilarining ko'pchiligida ham ayollar faol ijrochi sifatida qatnashgan. Bu holat ayollarning oilaviy va marosimiy folklori avloddan avlodga yetkazishda alohida mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi. Biroq qadimgi Baqtriya davri ayol musiqachilar tasviri bilan XX asrgacha yetib kelgan badash ijrochiligi o'rtasida bevosita va uzluksiz tarixiy davomiylik mavjudligini qat'iy da'vo qilish uchun qo'shimcha yozma, etnografik va musiqashunoslik dalillari zarur. Shunga qaramay, bu ikki madaniy qatlamni qiyoslash Surxon vohasida ayollar ishtirokidagi musiqiy va marosimiy an'analarning uzoq tarixiy taraqqiyotini aniqlashga yordam beradi.

Badash an'anasining saqlanishi va keyingi avlodlarga yetib kelishida keksa ayollar, tajribali ijrochilar va mahalliy kayvonilar muhim vazifani bajargan. An'anaviy qishloq jamoalarida folklor bilimlari maxsus yozma qo'llanmalar orqali emas, balki bevosita kuzatish, tinglash, takrorlash va jamoaviy ijro jarayonida o'zlashtirilgan. Tajribali ayollar yosh qizlarga qo'shiqlarning matni va ohangini, raqs harakatlarini, marosimda o'zini tutish qoidalarini hamda qaysi aytilning qanday vaziyatda ijro etilishini o'rgatganlar. Shu tariqa badashning musiqiy jihatlar bilan bir qatorda uning marosimiy tartibi va axloqiy mazmuni ham avlodlararo uzatilgan. Qizlarning turmush qurishidan oldin xalq qo'shiqlari, marosim aytilari va mahalliy urf-odatlarini yaxshi bilishi esa ularning yangi oilaga va jamoaga ijtimoiy-madaniy jihatdan tayyorligini ifodalovchi fazilatlaridan biri sifatida qadrlangan [5:198].

Badash bilan bog'liq og'zaki nasihatlarida ushbu san'at xalqning tarixi, shevasi, ohangi, dard-u quvonchi va jamoaviy xotirasini mujassamlashtiruvchi meros sifatida talqin etilgan. Keksalar avlod vakillari yosh ijrochilarga qo'shiq va aytilarni unutmaslik, ularning mahalliy ohanglarini saqlash hamda kelgusi avlodlarga o'rgatishni ma'naviy mas'uliyat deb tushuntirganlar. Bu jihatdan badash faqat estetik zavq beruvchi ijro shakli emas, balki voha aholisining o'zligini namoyon

etuvchi madaniy vosita vazifasini ham bajargan. Unda mahalliy sheva xususiyatlari, xalqona iboralar, tarixiy xotira, oilaviy munosabatlar, mehnat va turmush tajribasi bir butun holda mujassamlashgan. Shuning uchun badashni Sherobod vohasi nomoddiy madaniy merosining ko'p qatlamli folklor hodisasi sifatida o'rganish uning etnomadaniy mazmunini yanada to'liq ochish imkonini beradi [6:231].

An'anaviy tasavvurlarda badashning ijtimoiy vazifasi ham keng bo'lgan. Qo'shiq va aytimlar orqali kishilar o'rtasida xabar, nasihat, ezgu tilak va jamoaning umumiy munosabati badiiy shaklda ifodalangan. Olis qishloqlar aholisini umumiy marosim va bayramlarda birlashtirish, mehnatkash insonlarni ulug'lash, o'zaro totuvlikni mustahkamlash ham folklor ijrochiligining muhim funksiyalaridan hisoblangan. Ayniqsa, to'y va oilaviy marosimlarda ijro etilgan aytimlar insonning bir ijtimoiy maqomdan boshqasiga o'tishini jamoatchilik tomonidan e'tirof etish vositasiga aylangan. Shu sababli badash, lapar va boshqa ayollar folklori namunalari Sherobod vohasi jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, kishilarni o'zaro yaqinlashtiruvchi hamda umumiy qadriyatlarni mustahkamlovchi madaniy mexanizm vazifasini bajargan [7:88].

XULOSA (CONCLUSION)

Qiz farzandga bildirilgan an'anaviy tilak va duolarda esa uning kelajakdagi oilaviy hayoti, ro'zg'or farovonligi va jamiyatdagi mavqei bilan bog'liq qarashlar mujassamlashgan. Ona va keksa ayollarning nasihatlarida qizning ota uyidagi tarbiyasini yangi oilada davom ettirishi, oila totuvligini asrashi, mahalliy urf-odat va qo'shiqlarni unutmasligi hamda ularni keyingi avlodga yetkazishi alohida qadrlangan. Yo'lining ravon, turmushining farovon va kelajagining saodatli bo'lishini tilash kabi duolar xalqning oila va avlod davomiyligi haqidagi qarashlarini ifodalagan. Demak, Sherobod vohasidagi badash an'anasi musiqiy ijrochilik doirasidan ancha keng bo'lib, unda ayollarning madaniy merosni saqlashdagi roli, avlodlararo vorisiylik, oilaviy tarbiya va jamoaviy birdamlik bir-biri bilan uzviy bog'langan. Shu jihatdan badashni tarixiy-etnografik nuqtayi nazardan tadqiq etish Sherobod vohasi aholisining nomoddiy madaniy merosi, ayollar folklori va an'anaviy ijtimoiy hayotining tarixiy transformatsiyasini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov I. *Ko'hitangtog' qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari*: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. – B. 23–24.
2. Jo'rayev M. *O'zbek mavsumiy marosim folklori*. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Mirzayev T. *Xalq baxshilarining epik repertuari*. – Toshkent: Fan, 1979.
4. Sarimsoqov B. *O'zbek marosim folklori*. – Toshkent: Fan, 1986.
5. Tursunov S., Qobilov E., Pardaev T., Murtazoyev B. *Surxondaryo tarix ko'zgusida*. – Toshkent: Sharq, 2001.
6. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi* / K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
7. *O'zbek folklori ocherklari*. Uch jildlik. 1-jild / mas'ul muharrir T. Mirzayev. – Toshkent: Fan, 1988.